

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA G'AZNACHILIK AXBOROT TIZIMIDA
BUDJET NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

Abduqaxorov Xamidulloxon Abdug'affor o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi
2-kurs magistranti

O'zbekiston Respublikasida davlat moliyasini boshqarish tizimida olib borilayotgan islohotlar, qator vazifalar bilan birgalikda, davlat budjetining g'azna ijrosiga bosqichma-bosqich o'tishni va uning faoliyat mexanizmlarini takomillashtirishni nazarda tutadi. Bunda zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida davlat mablag'larining harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlash, qayta ishlash, uzatish usullarini o'zlashtirish asosida davlat moliyasini boshqarishning samarali usul va vositalarini shakllantirish va muvofiq holda ishlashini ta'minlash zarur bo'ladi. Mamlakatimizda davlat budjetining g'azna ijrosini samarali tadbqiq etishga faqatgina barqaror rivojlanish ko'rsatkichlariga erishganimizdan keyingina muvaffaq bo'ldi.

O'zbekiston hukumati davlat moliyasini boshqarish tizimida ham kengqamrovli islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib kelmoqda. Bu islohotlarning ijobiy natijalarini Davlat budjeti nazoratida g'aznachilik axborot tizimining muvaffaqiyatli joriy etilishida ko'rishimiz mumkin. Davlat budjetining g'azna ijrosi davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining barcha daromadlarini, shuningdek, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha tushumlarini yagona g'azna hisobraqamga jamlash va ularning barcha xarajatlarini shu hisobraqamdan amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu esa davlat budjeti, budjetdan tashqari fondlar, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari, davlat qarzlari va ularga xizmat ko'rsatish jarayonlarining tezkor nazoratini va monitoringini olib borish, davlat mablag'larining samarali ishlatilishini ta'minlash, davlat moliyaviy resurslarining harakati to'g'risida operativ tarzda ma'lumotlarni jamlash imkonini beradi.

Taraqqiyotimizning bugungi sharoitida mamlakatimiz iqtisodiyotida sodir bo'layotgan tarkibiy o'zgarishlar, butun moliya tizimida, uning markaziy bo'g'ini bo'lgan davlat moliyasida amalga oshirilayotgan islohotlar davlat moliyasini boshqarish masalalarida muayyan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish zarurligini talab qilmoqda. Bunday sharoitda nafaqat davlat moliyasi haqidagi ma'lum nazariy bilimlarga ega bo'lgan, balki Davlat budjeti nazoratida g'aznachilik axborot tizimi jarayonlarida vujudga keladigan holatlarni tushuna oladigan, budjet ijrosi ishtirokchilari bo'lgan moliya organlari, g'aznachilik bo'linmalari, budjet tashkilotlari va budjetdan mablag' oluvchilar amaliy faoliyatini samarali tashkil qila oladigan, davlat mablag'larini samarali boshqarishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qila oladigan zamonaviy mutaxassislar tayyorlash birinchi darajali ahamiyatga egadir. Shu sababli davlat moliyasi uchun tashabbuskor, ijodiy fikrlaydigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashda budjet-moliya va budjetning g'azna ijrosi nazariyasi va amaliyotini o'rganishga muhim o'rin beriladi. Jamiyatning bu talabini anglagan holda, shuningdek, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining ta'lim tizimiga yangi avlod darsliklarini yaratish bo'yicha dasturiy vazifasini bajarish maqsadida mualliflar tomonidan oliy ta'limning tegishli yo'nalishlaridagi talabalar uchun "G'aznachilik" nomli darslik yaratildi.

Bunda g'aznachilik nazorati budjet daromadlari va xarajatlarini yagona g'azna hisobraqamiga jamlash, pul mablag'larini to'g'ri rejalashtirish, moliyaviy oqimlarning dastlabki va joriy nazoratini amalga oshirish hamda davlat budjetini yuqori operativlikda ijro qilish imkonini beradi.

Ma'lumki, global jahon iqtisodiyotidagi jiddiy muammolar hamda ularning dunyodagi ko'plab mamlakatlar qatorida bizning mamlakatimiz iqtisodiyotiga ham ko'rsatayotgan salbiy ta'siriga qaramasdan, oxirgi yillarda respublikamizda yuqori va barqaror o'sish sur'atlarini saqlab, makroiqtisodiy barqarorlik va mutanosiblikning ta'minlanayotganligi o'ziga xos ijobiy ko'rsatkich bo'lmoqda. Avvalo, budjet jarayoni tushunchasining mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, budjet jarayoni - budjet loyihasini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijro etilishini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinishi bilan bog'liq bo'lgan davlat hokimiyati va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari hamda boshqa budjet jarayoni ishtirokchilarining maqsadli faoliyatidir. Uning mazmuni mamlakatning davlat va budjet qurilishi, tegishli vakolatli organlar va yuridik shaxslarning budjet huquqlari bilan belgilanadi. Byudjet jarayoni budjetni rejalashtirishdan boshlanadi. Byudjetni rejalashtirish davlat moliyaviy siyosati talablariga muvofiqlashtirilgan moliyaviy rejalashtirishning muhim tarkibiy qismini tashkil qiladi. Bunday rejalashtirishning iqtisodiy vazifasi turli darajadagi budjetlar va budjetdan tashqari jamg'armalarni tuzish va ijro etish jarayonida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning umummilliy dasturlari asosida yalpi ichki mahsulot va milliy daromad qiymatini moliya tizimi bo'g'inlari o'rtasida markazlashtirilgan tarzda qayta taqsimlash nisbatlarini to'g'ri belgilashdan iboratdir.

Mamlakatimizda davlat budjetining g'azna ijrosiga o'tishgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va uning topshirig'iga muvofiq tijorat banklari davlat budjetining kassaviy ijrosini amalga oshirib keldilar. Byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlari ularning hisobvaraqlaridagi budjet mablag'lari qoldiqlari doirasida to'lov topshiriqnomalari bo'yicha amalga oshirib kelindi. Bu amaliyot bir necha o'n yillar mobaynida budjet ijrosida ma'lum darajadagi samara bilan qo'llanib kelindi. Lekin keyingi yillarda davlat budjetining kassaviy ijrosi davlat mablag'larini boshqarish, budjet ijrosini tashkil qilish va nazoratini olib borish, mablag'larning samarali ishlatilishini ta'minlash masalalarida bir qator muammolarni keltirib chiqardi:

- budjet daromadlari va xarajatlari to'g'risidagi axborotlarning etarli darajada operativ (tezkor) emasligi;
- daromadlarning bank hisobraqamlariga tushishi va budjetning hisobraqamlarida aks ettirilishidagi uzilishlarning mavjudligi bois budjet resurslarini boshqarishdagi tezkorlikning sustligi;
- soliq daromadlarining budjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanish jarayonlarini samarali tartibga solish va daromadlar tushumini jadallashtirishning zarurligi;
- budjet ajratmalarining hajmlari bilan haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlar summalari ko'rsatkichlarining tarqoqligi tufayli mablag'larning tushumi va sarflanishi ustidan yagona nazoratning murakkablashuvi;
- budjet tashkilotlarining hisobraqamlarida ishlatilmayotgan budjet mablag'larining turib qolishi;
- budjet mablag'larining ajratilishi bilan ularning so'nggi iste'molchilarga etib borishigacha bo'lgan vaqtning uzoqligi;
- davlat mablag'lari harakatining murakkablashuvi va hajmlarining ortib borishi bilan ulardan oqilona foydalanish ustidan dastlabki nazoratning va joriy monitoringning zarurligi va boshqalar.

Sanab o‘tilgan muammolar kecha yoki bugun yuzaga chiqmadi, ular yillar davomida yig‘ilib, tezkor sur‘atlar bilan rivojlanib borayotgan jamiyat taraqqiyotiga halaqit bera boshladi. Byudjet ijrosi ustidan nazoratning sustligi, mablag‘larni operativ boshqarish imkoniyatining kamayib borayotganligi, budjet ijrosi to‘g‘risidagi tezkor va aniq ma‘lumotlarni olish, jamlash, qayta ishlash va tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi qiyinchiliklar davlat moliyasini boshqarish tizimida islohotlar qilishni, budjet mablag‘larini boshqarishning samarali usul va vositalarini izlab topib, tadbiq etishni talab etdi va davlat budjetining kassaviy ijrosidan g‘azna ijrosiga o‘tishning zarurligini belgilab berdi.

G‘aznachilik axborot tizimini tashkil etishning mazmuni - davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalarining barcha daromadlarini, shuningdek, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha tushumlarini yagona g‘azna hisobraqamga jamlash va ularning barcha xarajatlarini shuhisobraqamdan amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu esa davlat budjeti, davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg‘armalar, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari, davlat qarzlariga xizmat ko‘rsatish jarayonlarining tezkor nazoratini va monitoringini olib borish, davlat mablag‘larining samarali ishlatilishini ta‘minlash, davlat moliyaviy resurslarining harakati to‘g‘risida operativ tarzda ma‘lumotlarni jamlash, boshqarish va nazorat qilish imkonini beradi. Shu narsa ma‘lumki, O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy mamlakatlar bozor mexanizmlarini ko‘r-ko‘rona, sun‘iylik bilan tadbiq etib bo‘lmaydi, chunki jamiyat a‘zolari o‘rtasida shunday an‘anaviy ierarxik munosabatlar tizimi shakllanganki, ularni mensimaslik, keskin qarorlar qabul qilish chog‘ida ularni e‘tiborga olmaslik turli nohush holatlarga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, iqtisodiyotni boshqarishning jahon amaliyotida tan olingan bir qator mexanizmlarini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish sharoitlarimizga tegishli tarzda moslashtirgan holda qo‘llash va ijobiy foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimizda davlat budjetining g‘azna ijrosiga o‘tishgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va uning topshirig‘iga muvofiq tijorat banklari davlat budjetining kassaviy ijrosini amalga oshirib keldilar. 2000 yil 14 dekabrda qabul qilinib, 2014 yil 1 yanvarda Byudjet Kodeksi kuchga kiringunga qadar budjet amaliyotining huquqiy asosini tashkil qilib kelgan “Byudjet tizimi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 37-moddasida “Davlat budjetining kassa ijrosini tashkil etish, shuningdek uning davlat daromadlari va xarajatlarini hisobga olish O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Davlat budjetining kassa ijrosi operatsiyalarini banklar Markaziy bankning topshirig‘iga binoan bajaradi”, - deb belgilab qo‘yilgan edi. Byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlari ularning hisobvaraqlaridagi budjet mablag‘lari qoldiqlari doirasida to‘lov topshiriqnomalari bo‘yicha amalga oshirib kelindi.

Davlat budjeti nazoratida g‘aznachilik axborot tizimiga o‘tishgacha bo‘lgan davrda budjet ijrosi jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi edi:

- budjet tushumlarini taqsimlash; - tegishli budjetlarda jamlangan mablag‘larni budjetdan mablag‘ oluvchilarning ularga xizmat ko‘rsatuvchi banklarda ochilgan hisobraqamlariga o‘tkazish.

Davlat budjeti ijrosini g‘aznachilik mexanizmlariga o‘tkazishning quyidagi afzalliklari mavjud

– qisqa fursatlarda davlat moliyaviy resurslarining real hajmini va uning istiqbol ko‘rsatkichlarini aniqlash;

– davlat moliyasining holati to‘g‘risidagi tezkor axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish;

– davlat budjetining ham daromadlari, ham xarajatlari qismi kassali ijrosining har kungi detallashtirilgan monitoringini o‘tkazish;

– tasdiqlangan budjet mablag‘lari doirasida budjet tashkilotlarining tovarlar va xizmatlar etkazib beruvchilar oldida majburiyatlar qabul qilish bosqichida (shartnomalar, kontraktlar tuzish) dastlabki nazorat qilish;

– taqsimlovchilar tomonidan suiste‘mol qilish va noto‘g‘ri ishlatishning oldini olish maqsadida joriy nazorat qilish;

- mablag‘larini o‘tkazishni soddalashtirish natijasida budjet mablag‘larini tezkor ishlatish.

Xorijiy davlatlar amaliyotini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, davlat tuzilishi turlicha bo‘lgan mamlakatlarda davlatga qarashli mablag‘lar Moliya vazirligining tarkibiy qismi bo‘lgan G‘aznachilik ning yagona hisobraqamida to‘planadi. Davlat qarzlarni boshqarish g‘aznachilikka yuklatilgan. G‘aznachilik muomalaga qimmatli qog‘ozlar chiqarishni, hajmini va to‘lov muddatini nazorat qiladi, ularning tarkibiga bog‘liq barcha masalalarni echadi. G‘aznachilik davlat qarzlarni boshqarishda turli bosqichlarda qatnashadi.

Davlat budjeti nazoratida g‘aznachilik axborot tizimi - davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalarining barcha daromadlarini, shuningdek, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha tushumlarini yagona g‘azna hisobraqamga jamlash va ularning barcha xarajatlarini shu hisobraqamdan amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu esa davlat budjeti, budjetdan tashqari fondlar, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari, davlat qarzlari va ularga xizmat ko‘rsatish jarayonlarining tezkor nazoratini va monitoringini olib borish, davlat mablag‘larining samarali ishlatilishini ta‘minlash, davlat moliyaviy resurslarining harakati to‘g‘risida operativ tarzda ma‘lumotlarni jamlash imkonini beradi.

Davlat budjeti nazoratida g‘aznachilik axborot tizimining asosiy tamoyillari - kassaning yagonaligi hamda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishning yagonaligidan iborat. Davlat budjetining g‘azna ijrosi qonun xujjatlarida belgilab qo‘yiladigan maxsus vakolatli moliya organi hamda uning Qorag‘alpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlardagi hududiy bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

G‘aznachilik yagona axborot tizimi

Mamlakatimizda g‘aznachilik tizimini joriy etilishi budjet parametrlarini yaxshilash borasida amalga oshirilgan islohotlar sirasiga kiradi. Bugungi kunda mazkur sohani yanada tokomillashtirish lozimligi g‘aznachilik tizimining tashkiliy va huquqiy tizimini takomillashtirish, uning tarrafiy etishining yo‘nalishlarini o‘rganish muhimligini keltirib chiqaradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ta‘kidlaganidek “Davlat budjetini bajarishga qaratilgan g‘aznachilik xizmati institutini rivojlantirish va mustahkamlash budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini ancha oshiradi. Bu borada Moliya Vazirligi huzurida yangi tashkil etilgan G‘aznachilik tuzilmasining moddiy-texnik bazasini barcha pog‘onalarda mustahkamlash, uni malakali kadrlar bilan ta‘minlash, xalq ta‘limi va sog‘lig‘ini saqlash sohasida budjet tashkilotlarini moliyalash mexanizmini yanada takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirish lozim” [1]. G‘aznachilik tizimining joriy qilinishi natijasida keyingi yillar davlat budjetini profisit bilan ijro etilishi ta‘minlanmoqda. Xususan, 2014 yil yakunlariga ko‘ra davlat budjetini, soliq yuki 20,5 foizdan 20,0 foizgacha

kamaygani va foydadan olinadigan soliq stavkasi 9 foizdan 8 foizgacha pasaygani holda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,2 foiz profitsit bilan ijro etilishiga erishildi. Bunda hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy siyosatning to'la va izchil amalga oshirilishi, iqtisodiyotning muhim ustuvor tarmoqlarining belgilab berilishi hamda ularni rivojlantirish bo'yicha imkoniyatlarning safarbar etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday bo'lishiga qaramasdan g'aznachilik tizimini yanada samarali faoliyat yuritishi hamda takomillashtirish uchun quyida keltirilgan yo'nalishlarda amaliy ish olib boorish maqsadga muvofiqdir:

- Respublikamizda G'aznachilik tizimining samarali faoliyat yuritishi uchun me'yoriy-huquqiy asoslarning yanada takomillashtirish;
- Mamlakatimizdag'aznachilik tizimida ilmiy faoliyat olib borayotgan iqtisodchi olimlar hamda soha gadoir ilmiy adabiyotlar miqdorini oshirish;
- Sohada faoliyat yuritib kelayotgan xodimlarning g'aznachilik bo'yicha tajriba, bilim hamda ko'nikmalarini oshirish;
- Respublikaning barcha hududlarida zamonaviy axborot texnologiyalari, aloqa tizimlaridan foydalanish darajasini oshirish va boshqa bir qator muammolarni keltirishimiz mumkin.

G'aznachilik tizimi — yosh moliyaviy struktura bo'lishiga qaramasdan uning rivojlanish darajasi juda yuqori. Davlat budjetini boshqarishda g'aznachilik organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalar yildan yilga takomillashib bormoqda. G'aznachilik instituti budjet daromadlari va xarajatlarini to'g'ri rejlash tirish hamda ijro qilish imkonini beradi. Asosiysi, kelgusi yil loyihasini tayyorlash uchun prognoz ma'lumotlarini shakllantirilishiga xizmat qiladi. Davlat budjeti daromadlari va xarajatlarining barqarorligini, mamlakatimiz hududlarida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvafaqqiyatini belgilab berishda davlat budjeti g'azna ijrosi muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunga qadar davlat budjetining ijrosida ko'pgina o'zgarishlar amalga oshirildi. Respublikamizda 2010–2014 yillarda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha rivojlanish kuzatildi:

- davlat budjeti daromadlari hisobini budjet tizimi bo'g'inlarida tartibga solish;
- mahalliy soliqlar va yig'imlar, respublika solikli va soliqsiz daromadlari hisobi;
- davlat va mahalliy budjetlarning kassa ijrosi;
- quyi budjetlarni pog'onali moliyalashtirilishiga chek qo'yildi;
- budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish ustidan nazorat kuchaytirildi;
- mahalliy budjet ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash muddati qisqartirildi va sifati yanada yaxshilandi.

Davlat budjeti g'azna ijrosini boshqarish sohasidagi dolzarb muammolarni hal etish zarur bo'lganda, g'aznachilik organlarining faoliyati Davlat budjeti islohotlarida o'zining ijobiy tomonlarini ko'rsatmoqda. Davlat budjeti kassa ijrosini amalga oshirish bo'yicha belgilangan tartibni to'g'ri amalga oshirilishini nazorat qilishga qaratilgan "ichki nazorat" xizmatini rivojlantirish va takomillashtirish budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu borada g'aznachilik organlarida tashkil etilgan ichki nazorat bo'limlarining moddiy-texnik bazasini barcha pog'onalarda mustahkamlash, uni malakali kadrlar bilan ta'minlash kabi keng ko'lamli ishlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish strategiyasiga ko'ra, Moliya vazirligi G'aznachiligida ichki nazorat tizimini rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq Davlat moliyasini boshqarish tizimi

ustidan nazoratni takomillashtirish pirovard maqsad qilib belgilandi. Jahon standartlariga muvofiq davlat moliyasini boshqarish sohasida tashkil etilgan ichki nazorat va audit rivojlangan jamiyatga erishishning zarur quroli deb baholanmoqda. Markazlashgan budjet mablag'laridan belgilangan maqsadda ishlatilishini nazorat qilish, mahalliy budjetlarni bajarilishida investitsiya va kapital qo'yimalarga yo'naltirilgan xarajatlar ustidan nazorat qilish tartibini mukammallashtirish lozim. Shuningdek, ijtimoiy-madaniy tadbirlarga ajratilgan budjet mablag'laridan foydalanish, dastur asosida aniq ro'yxatli bo'lishini, budjetdan mablag' oluvchilarni moliyalashtirish mexanizmini soddalashtirish, budjet mablag'laridan foydalanish hisobini yuritishda kuchli moliyaviy nazoratini ta'minlashni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi G'aznachilik tizimini yanada takomillashtirishning yana bir muhim masalaridan biri bu davlat xaridlar tizimi hisoblanadi. Davlat xaridini boshqarish tizimini takomillashtirish uchun quyidagi elementlardan foydalanish samarali yo'nalish hisoblanadi:

- davlat xaridi siyosatini davlatning iqtisodiy siyosati maqsadlariga muvofiqlashtirish;
- davlat xaridi sohasidagi amalga oshirilayotgan siyosatni monitoring va baholashni tatbiq etish.

Davlat xaridlar tizimini takomillashtirishni muhim strategik masalaridan biri

- davlat xaridini rejalashtirishni qisqartirishdir.

Davlat xaridi faoliyatini rejalashtirishning tamoyili budjet mablag'larining ishlatilishi samaradorligini va tejamkorligini oshirish deb baholanishi kerak. Respublikamizda kelgusida g'aznachilik tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish uchun doimiy g'aznachilikning Yagona g'azna hisobvarag'i monitoringini o'tkazish kerak. Hozirgi kunda budjet amaliyotida g'aznachilik takomillashtirish va davlatning moliyaviy resurslarini samarali boshqarish uchun Davlat budjeti mablag'larini prognozlashtirish va kassali rejalashtirishni takomillashtirish bilan birga, davlat budjeti mablag'larini likvidligini oshirishga olib keladigan G'aznachilikning Yagona g'azna hisobvarag'idagi operatsiyalarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish zarur. Davlat budjetini bajarishga qaratilgan g'aznachilik xizmati institutini rivojlantirish va mustahkamlash budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini ancha oshiradi [2]. Budjet tashkilotlari xaridini to'g'ri va samarali tashkil qilish uchun mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilish jarayoniga kompleks yondashish zarur. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish bosqichida budjetdan tashqari fondlarning mablag'larini oqilona sarflashning eng maqbul mexanizmini shakllantirishimiz kerak. Shu sababli, kelajakda Davlat budjeti tarkibidagi davlatning maqsadli pul jamg'armalari faoliyatini takomillashtirishni ta'minlaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Bir qator rivojlangan davlatlarda budjet ishlab chiqish jarayonida yanada samarali uslublardan foydalanish maqsadida yangi "maqsadli-dasturli rejalashtirish uslubi" yoki "natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish" uslubi qo'llaniladi. Budjet islohotining muhim yo'nalishlaridan biri — natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirishni joriy etishdir. Natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish (NYB) — moliyaviy resurslarni taqsimlash va foydalanishning tiniqligi, nazorat ostida bo'lishi va samaradorligini oshirishni ko'zda tutadi. Bunda cheklangan moliyaviy resurslar jamiyatda ko'zda tutilgan aniq maqsadga erishishiga qarab hamda davlat budjeti siyosatining ustuvor yo'nalishlariga muvofiq taqsimlanadi. Natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirishdan foydalanganimizda xarajatlarning alohida moddalari bo'yicha budjet g'azna ijrosida maqsadli ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni bajarishga o'tiladi. Dasturiy-maqsadli uslubda rejalashtirish uzoq muddatli baholash asosida, budjet xarajatlarini qismlarga ajratish esa — maqsadlar va dasturlardan kelib chiqib amalga oshiriladi. Bunda budjet faqatgina xarajatlar tasnifining "an'anaviy" turlari

yordamidagina emas, balki aniq dasturlar bo'yicha ham ishlab chiqiladi. Dastur doirasidagi har bir tadbirga xarajatlar alohida ko'rsatiladi. Ular shu dastur doirasida moliyalashtirilayotgan ob'ekt yoki xizmatning holatini va dastur yakunlanganda erishilishi rejalashtirilayotgan holatini aks ettiradi. NYB uslubi g'aznachilikda quyidagi vazifalarni yechishga imkon beradi:

- aholi talablariga mos xizmatlarni taqdim etish;
- xarajatlarning nafaqat qiymatini, balki ijtimoiy samaradorligini aniqlash;
- budjet xarajatlarning asosligi va tiniqligini oshirish;
- budjet tasnifi bo'yicha resurslarni xarajat turlari bo'yicha emas, strategik maqsadlar

bo'yicha taqsimlash. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetini boshqarishni takomillashtirish, budjet jarayonini tizimlashtirish, budjet tasnifini mukammallashtirish bo'yicha nazariy ishlanmalar va amaliy asoslarning sezilarli darajada zamon talabidan ortda qolmasligi uchun budjet tasnifi bo'yicha aniq tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish zarur. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda budjet jarayonlarini samarali boshqarish yanada murakkablashadi. Bu esa budjet mablag'larini boshqarish, ularni budjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlash mexanizmini takomillashtirish zarurligini talab etadi. Davlat moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda budjet ijrosini samarali boshqarish muammosi dolzarbligicha qolmoqda. Respublikamizda amalga oshirilgan tadbirlar qatorida bank, moliya, budjet, g'aznachilik tizimini mustahkamlash masalasiga qaratiladi. Shunday sharoitda Davlat budjetidan samarali foydalanish milliy iqtisodiyotni rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan birga mamlakat ichida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni yuzaga kelishini ta'minlaydi.

G'aznachilikda Yagona g'azna hisobraqami va boshqa g'azna hisobvaraqlarini yuritilishi

G'aznachilikda Yagona g'azna hisobraqami va boshqa g'azna hisobvaraqlarini yuritilishi Turli davlat dasturlari va loyihalarni budjet mablag'lari bilan moliyalashtirishning tarkib topgan amaliyoti moliyalovchi organ tomonidan bir oluvchiga yo'llangan moliyaviy mablag'lar boshqasiga tushishi mumkin bo'lgan vaziyatni istisno etmaydi. Agar davlat mablag'laridan maqsadli foydalanishni nazorat qilish ular ajratilgandan keyingina boshlansa, davlat budjeti ko'p narsani boy beradi. Keyingi moliyaviy nazoratning samarasizligi shundaki, uning xulosalari budjetdan mablag' oluvchi o'ziga ajratilgan mablag'larini amalda sarflab bo'lganidan keyin chiqariladi. Vaholanki, joriy nazoratni, ya'ni budjet mablag'lari o'zlashtirilishi jarayonini nazorat qilishni ta'minlash muhimdir. Jahon tajribasi ko'rsatadiki, budjetning kassali ijrosi g'aznachilik va bank orqali amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida budjet ijrosida bank tizimining qo'llanilishi quyidagi holatlarga olib keldi:

- daromadlarning tushishida pasayish yuz berdi, tartibga soluvchi soliqlarni qo'llashning yagona uslubining yo'qligi budjet jarayonini boshqarishni qiyinlashtirdi;
- tushgan daromadlar va qilingan xarajatlar to'g'risida tezkor axborotlar olishga, zudlik bilan budjetga oid boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkoniyat bermadi;
- tijorat banklari hisobraqamlarida budjet mablag'larining o'rtacha qoldig'ining yuqori darajasi saqlanib qoldi;
- budjet mablag'larining nazorati kamayib ketdi, amalda ularni maqsadsiz ishlatish hollari kelib chiqdi41.

Buning asosiy sabablaridan biri joriy budjet ijrosi tizimida, moliya organlari sust (passiv) rolga ega bo'lganligi va shu bilan bir vaqtda bank va budjet 41 Treasury Management: The Practitioner's Guide (Wiley Corporate F&A) (Steven M. Bragg). John wily & Sons Inc. Hoboki, New jersey. Canada 2010 year 109 tashkilotlariga yuklatilgan funktsiyalarni mustaqil bajarib, moliya organlarini amalga oshirilgan budjet jarayoni faktlaridan keyingina xabardor qilinadi. Buning natijasida mahalliy budjetlarda mablag' etishmovchiligi yuzaga kelib, yuqori turuvchi budjetdan budjet ssudasini olishga to'g'ri keladi. Eng asosiysi, buning natijasida aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan birinchi darajali xarajatlarni o'z vaqtida amalga oshirishni ma'lum muddatlarda kechikishiga olib kelmoqda. Bundan tashqari, hozirgi vaqtda mahalliy budjetlar tarkibida, respublikamiz aholisiga qaratilgan o'ta muhim ijtimoiy tadbirlar bo'lganligi uchun dolzarb masalalaridan biri daromadlarning tushishi bilan xarajatlarni amalga oshirishi kerak bo'lgan vaqt o'rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etishdir. Demak, davlat budjeti ijrosining yangi mexanizmini amaliyotga kiritilgani bugungi kunda budjet islohotlarining yirik yo'nalishlaridan biri desak xato bo'lmaydi, chunki davlat moliyasini samarali boshqarish zaruriyati mavjud, budjet mablag'laridan samarali foydalanish uchun budjet xarajatlarining nazoratini kuchaytirish talab etiladi. Davlat moliya tizimida o'tkazilayotgan islohotlar davlat xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirishni nazarda tutadi, Davlat iqtisodiyotini isloh qilish va bozor munosabatlarini rivojlantirish jarayonlarida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bunda davlat budjeti islohotlarning eng muhim dastaklaridan biri vazifasini bajaradi. Shu sababli, yaqin kelajakda davlat budjeti ijro etilishining g'aznachilik tizimini izchil joriy etishni ta'minlaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. G'aznachilik sharoitida budjetning kassali ijrosi deganda har bir budjetning daromadlari mazkur budjetni ijro etuvchi tegishli kassada jamg'arilishi tushuniladi. Shuningdek, ushbu budjetdan mablag' bilan ta'minlanuvchi barcha tashkilotlarga pul mablag'lari ushbu kassa orqali beriladi. Bunda konsolidatsiyalashgan budjetni ijro qilish maqsadida va davlat moliyasi bilan qilinadigan barcha jarayonlarni o'z vaqtida va aniq hisobini qilish uchun g'aznachilikning hisob-kitob schyotlari davlat budjeti daromadlari va xarajatlarining tasnif tizimiga mos kelishi kerak. Budjetning daromad qismini ijro etish yuridik va jismoniy shaxslardan soliq va soliqsiz to'lovlar undirish hisobiga amalga oshiriladi. Bunda yuridik va jismoniy shaxslar tegishli to'lovlarni qonunda belgilangan muddatlar va tartiblarda mustaqil ravishda hisoblaydilar va budjetga to'laydilar. Budjetning daromadlar qismi ijrosida soliq organlarining funktsiyasi tartibga soluvchi soliqlarni taqsimlash, noto'g'ri to'langan summalarni qaytarish va budjet daromadlari tushumi hisobini olib borishdan iborat bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baxrom Baxodirovich Mirsamatov , RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA G'AZNACHILIK AXBOROT TIZIMIDA BYUDJET NAZORATINI YAXSHILASH , FAOL TADQIQOTCHI: Vol. 1 Yo'q. 1 (2024): FAOL TADQIQOTCHI
2. Sadoqat G'afforovna Siddiqova, TIBBIYOT SOHASIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING O'RNI , FAOL TADQIQOTCHI: Vol. 1 Yo'q. 1 (2024): FAOL TADQIQOTCHI
3. Lazizbek Abror o'g'li Sattarqulov, Dilbar Qo'chqorovna Ergasheva, Gulnoza Sohibjon qizi Adiljonova, GAZ YOQILG'ISIDA ISHLAYDIGAN QOZONLARNING DEVORLARI

- SUYUQLIK TA'SIRIDA YORILISHI VA KORROBLARI , FAOL TADQIQOTCHI: jild. 1 Yo'q. 1 (2024): FAOL TADQIQOTCHI
4. Muxlisa Isanqulova, Zumrad To'raqulova, GLOBALLASHUVNING NAZARIY ASOSLARI , FAOL TADQIQOTCHI: Vol. 1 Yo'q. 1 (2024): FAOL TADQIQOTCHI
 5. Gulira'no O'razaliyeva, Malika Umirqulova, GLOBALLASHUVNING IJTIMOY, MA'NAVIY-MA'RIFIY TARAQQIYOTGA TA'SIRI , FAOL TADQIQOTCHI: Jil. 1 Yo'q. 1 (2024): FAOL TADQIQOTCHI
 6. Asqar Jong'oboyevich Ergashev, Abdullo Abduvoxidovich Nabiyev, YADRO TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISH METODIKASIDA O'RG'ANILADIGAN MUAMMOLAR , FAOL TADQIQOTCHI: Vol. 1 Yo'q. 1 (2024): FAOL TADQIQOTCHI
 7. Musobek Tursunqul o'g'li Fayzullayev, UMUMLASHTIRISH NATIJASIDA YANGI MASALA TUZISH METODIKASI , FAOL TADQIQOTCHI: Vol. 1 Yo'q. 1 (2024): FAOL TADQIQOTCHI
 8. Musobek Tursunqul o'g'li Fayzullayev , O'QUVCHILARDA GEOMETRIK MASALALARNI ANALOGIDAN FOYDALANIB TUZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI , FAOL TADQIQOTCHI: Vol. 1 Yo'q. 1 (2024): FAOL TADQIQOTCHI
 9. Nodira Nabijonovna Ramazonova, RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYASI , FAOL TADQIQOTCHI: Jil. 1 Yo'q. 2 (2024): FAOL TADQIQOTCHI
 10. Zuxraxon Rustamxanovna Shakirxodjayeva , AUDITORLIK TOSHKILOTLARI ISHI SIFATINI TOSHQI NAZORATDAN O'TKAZISHNI TAKOMILLASHTIRISH , FAOL TADQIQOTCHI: Vol. 1 Yo'q. 2 (2024): FAOL TADQIQOTCHI